



KODIFIKATSIYA SHAKLLANISHI: TARIXIY-HUQUQIY MASALALAR

Choriyev Ulug‘bek Rustamovich

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy huquq fakulteti, davlat-huquqiy

faoliyat yo‘nalishi 2-kurs talabasi

e-mail: UlugbekChoriyevRustamovich@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada qonunchilikni tizimlashtirishning eng muhim turi – kodifikatsiyaning tarixiy shakllanish bosqichlari tahlil qilinadi. Kodifikatsiya jarayoni huquq tizimini tartibga solish, takomillashtirish va unifikatsiya qilish vositasi sifatida qaraladi. Muallif qadimgi davrlardan to zamonaviy davrgacha bo‘lgan asosiy kodifikatsiya harakatlarini, xususan Ur-Nammu kodeksi, Hamurappi kodeksi, Napoleon kodeksi kabilarni tahlil qiladi. Mazkur maqola tarixiy-huquqiy tahlilga asoslanib, kodifikatsiya institutining dolzarbligi va amaliy ahamiyatini ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: kodifikatsiya, kodeks, huquqiy tizim, qonunchilikni tizimlashtirish.

ABSTRACT: This article analyzes the historical stages in the development of codification, which is one of the most important forms of systematizing legislation. The codification process is viewed as a means of organizing, improving, and unifying legal systems. The author examines major codification efforts from ancient times to the modern era, particularly focusing on the Ur-Nammu Code, the Code of Hammurabi, and the Napoleonic Code. Based on a historical and legal analysis, this article highlights the relevance and practical significance of the institution of codification.



Keywords: codification, code, legal system, systematization of legislation.

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируются исторические этапы формирования кодификации — одной из важнейших форм систематизации законодательства. Кодификация рассматривается как средство упорядочения, совершенствования и унификации правовой системы. Автор исследует основные кодификационные процессы от древности до современности, в частности, Кодекс Ур-Намму, Кодекс Хаммурапи и Наполеоновский кодекс. Основываясь на историко-правовом анализе, в статье раскрывается актуальность и практическое значение института кодификации.

Ключевые слова: кодификация, кодекс, правовая система, систематизация законодательства.

KIRISH

Huquqiy tizimning barqaror va izchil ishlashi uchun uning manbalari aniq, tartibli va o'zaro uyg'un bo'lishi zarur. Shu nuqtai nazardan olganda, kodifikatsiya – ya'ni huquqiy normalarni tizimlashtirish va yagona hujjat ko'rinishida bayon etish – yuridik amaliyotda muhim o'rin tutadi. Kodifikatsiya nafaqat huquq manbalarini soddalashtirish, balki fuqarolar uchun huquq va majburiyatlarni yanada tushunarli qilish, huquqiy aniqlikni ta'minlash kabi vazifalarni ham bajaradi.

Kodifikatsiya jarayonining tarixiy ildizlari chuqur bo'lib, u qadimgi Sharq qonunlaridan tortib, Rim huquqi va Yevropa yuridik tizimlarigacha bo'lgan davrlarni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, Napoleon kodeksi, Germaniya fuqarolik kodeksi va boshqa mashhur



yuridik to'plamlar bugungi zamonaviy huquqiy tizimlar shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Mazkur maqolada kodifikatsiyaning tarixiy rivojlanish bosqichlari, yirik kodifikatsiya tajribalari va ularning huquqiy taraqqiyotga ta'siri tahlil qilinadi.

METODOLOGIYA.

Ushbu tadqiqotning maqsadi kodifikatsiyaning rivojlanish bosqichlarini tahlil qilishdir. Tadqiqotning asosiy maqsadi ushbu rivojlanish jarayonining har bir bosqichida sodir bo'lgan rivojlanishlarni o'rganishdir. Ushbu maqsadlarga erishish uchun muallif ilmiy tadqiqotning qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil kabi bir qancha usullarni qo'llagan.

MUHOKAMA VA TAHLIL

Ko'pchilik olimlar eng birinchi kodeks sifatida Hamurappi qonunlarini keltirishadi. Biroq izlanishlarimiz natijasida ma'lum bo'ldiki, kodifikatsiya tarixi bundanda oldinroqqa, tahminan Hamurappi qonunlaridan 300 yil ilgari vaqtlarga borib taqaladi. Kodifikatsiya tarixi haqida "Butun dunyo tarix ensiklopediyasi" asoschilarilaridan biri Joshua J. Mark o'z maqolasida yozib o'tadi [1]. Ushbu maqolani o'rganish natijasida dunyodagi eng birinchi kodifikatsiya hujjati haqida quyidagi ma'lumotlarni o'rganishga erishdik. Ur-Nammu kodeksi — hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan eng qadimgi yozma qonunlar to'plami hisoblanadi. Bu qonunlar Sumer shohi Ur-Nammu yoki uning o'g'li Shulgi tomonidan yozilgan bo'lishi mumkin. Bu kodeks mashhur Hammurapining qonunlar to'plamidan ancha avval yaratilgan. Qonunning sanasi mil. avv. 2100–2050-yillarga to'g'ri keladi. Garchi Ur-Nammu kodeksi to'liq saqlanmagan bo'lsa-da, yetarlicha qismlari qolgan. Ur-Nammu o'zini xalqining otasi deb ko'rsatgan va odamlardan o'zini bitta oilaning a'zolari deb his qilishlarini istagan. Uning qonunlari esa — uy qoidalari sifatida tasvirlangan. Qonunbuzarlik uchun jazolar, o'lim bilan bog'liq jinoyatlardan tashqari, odatda jarima shaklida belgilangan. Bu bola tarbiyasida uning



sevimli o'yinchog'idan mahrum qilinishiga o'xshagan. Mashhur olim Samuel Noah Kramer bu qonunlarni loydan yasalgan, mixxat yozuvi bilan yozilgan sakkiz ustunli gil lavhadan o'qib chiqqan. Har bir ustunda qariyb 45 ta kichik qator mavjud bo'lib, ularning yarmi o'qishga yaroqli. Old qismda uzun preambula (kirish so'zi) mavjud bo'lib, bu preambulada oy xudosi Nanna Ur-Nammuni shoh qilib tanlagani, uni Larsa shahrini zabt etishda yordamlashgani, uning qo'llab-quvvatlovi bilan qonunlar yozilganligi kabilar haqida ma'lumotlra beriladi. Kodeksning asosiy qismi jinoiy huquqni qamrab olgan va turli jinoyatlarga jazolar keltirib o'tilgan. Jazolar sirasiga Ur-Nammu kodeksiga quyidagilar keltiriladi: birinchi tug'ilgan farzandini qul sifatida berib yuborish jazosi; jarima jazosi; o'lim jazosi. Shuningdek, kodeksda quyidagi qilmishlar jinoyat sifatida keltirib, ularga sanksiyalar belgilab o'tilgan: qasddan odam o'ldirish, talonchilik yoki o'g'rilik, boshqa erkakning bokira xotinini nomusiga tegish (zo'rlash), ayolning zinokorligi (turmush o'rtog'iga xiyonat), boshqa kishining oyog'ini kesish, kishining suyaklarini sindirish, kishining burnini kesish, kishining ko'zini chiqarish, kishining tishini urib tushurish, ijaraga olingan dalaga zarar yetkazish, boshqasining ayolini o'g'irlash yoki aldab olib ketish, nizo yoki urush vaqtida tan jarohati yetkazish, qarzdorlik majburiyatlarini bajarmaslik, dalada ishlaydigan ishchini qochirib ketish yoki yashirish, qo'shni hayvonlarini o'g'irlash yoki ularni yashirish, boshqa kishining mol-mulkiga zarar yetkazish.

Ur-Nammu Kodeksi to'liqligicha saqlanib qolmagan bo'lsa-da, insoniyat tomonidan amalga oshirilgan kodifikatsiyalarning eng dastlabkisi va qadimgisi sifatida qonunchilikni tizimlashtirish tarixida alohida ahamiyatga ega va bu ilmiy izlanuvchilar tomonidan alohida e'tirof etilishi zarur degan fikrdamiz. Kodeks tuzilishini o'rganib, Ur-Nammu kodeksi o'z davri uchun g'oyat yuqori miqdordagi aniqlikka ega bo'lgan deya olamiz.

Ur-Nammu kodeksidan keyingi kodeks sifatida Lipit-Ishtar kodeksi keltiriladi. Afsuski ushbu kodeks matni ham to'laligicha saqlanib qolmagan, biroq Francis Rue Steele ilmiy izlanishlaridagi saqlanib qolganlar qismlariga oid keltirgan tarjima va sharhlari orqali



ushbu kodeks haqida ayrim ma'lumotlarni o'rganishga muvaffaq bo'ldik [2]. Ushbu kodeks ham muqaddima va asosiy qismdan iborat. yaratish uchun berilgan yer e'tiborsiz qoldirganlik, o'zganing yeriga og'rilikka kirish, birovning bog'idagi daraxtni kesish, qullarga oid jazolar keltirib o'tilgan. Bu kodeksning shunisi e'tiborga loyiqki, bunda nafaqat jinoyat huquqi normalari, balki fuqarolik, oila huquqi normalari ham yagona hujjatga kodifikatsiyalashtirilgan. Xususan, qiz otasi tomonidan sovg'a qilingan uyni olishga majburligi, urning birinchi va ikkinchi xotinidan farzandlari otasining mol-mulkini bo'lib olishda teng huquqqa egaligi, qulni er yoki xotin qilib olishning huquqiy oqibatlari kabi normalar.

Bizningcha, ushbu kodeksda jinoya huquqi, fuqarolik va oila huquqi kabi huquq sohalarining birdaniga aralashishi kodifikatsiyaning asosiy xususiyatlaridan birini o'zida aks ettira olmagan. Ya'ni kodifikatsiyadan asosiy maqsad huquq normalarini tushunishga oson tarzda tizimlashtirishdan iborat. Turli huquq sohalarining yagona hujjatda aks ettirilishi bu maqsadga zid. Shunday bo'lsa-da, ushbu kodeks eng qadimgi huquq olamining eng noyob hujjatlaridan hisoblanadi.

Bundan keyingi kodeksni kodifikatsiya tarixidagi eng qadimgi hujjat sifatida ko'rmasak-da, eng ahamiyatlisi sifatida ko'rishimiz mumkin va bu - Hamurappi kodeksi. Ushbu kodeks qadimgi Mesopotamiyaning eng mashhur va eng yaxshi saqlangan qonunlar to'plamidir. Bu kodeks taxminan miloddan avvalgi 18-asrda Bobilda hukmronlik qilgan shoh Hamurappi tomonidan tuzilgan. Kodeks qadimgi dunyo qonunchiligining eng muhim namunasi bo'lib, unda ijtimoiy tengsizlik, jinoyatlar va iqtisodiy munosabatlar kabi muhim masalalar yoritilgan. Hamurappi kodeksi 282 ta moddadan iborat bo'lib, uchta qismga bo'lingan: Kirish; Qonunnoma; Xulosa [3].



Hamurappi qonunlarida quyidagi jinoyat turlariga oid normalar mustahkamlanganligini ko'rishimiz mumkin: shaxsga qarshi jinoyatlar; mulkka qarshi jinoyatlar; oilaga qarshi jinoyatlar; sudga qarshi jinoyatlar.

Hamurappi qonunlarida jazo tizimi quyidagicha bo'lgan:

- O'lim jazosi;
- Tana a'zosiga jarohot yetkazish;
- Tan jazolari;
- Sharmandalik belgisi;
- Pul jarimalari;
- Muayyan huquqdan mahrum qilish.

Hamurappi qonunlarida qat'iylikni ta'minlash uchun o'lim jazosidan keng foydalanilgan. 30 dan oshiq turdagi jinoyatlar uchun o'lim jazosi belgilanganligi esa fikrimizning yaqqol isboti bo'lishi mumkin. Hamurappi kodeksi ham huquq tarixida, aniqroq qilib aytganda kodifikatsiya tarixida katta ro'l o'ynaydi. Bundan keyin Hindistondagi Manu qonunlari, Rimdagi 12 jadval qonunlari, Yustinian kodeksi, Fransiyadagi Napoleon kodeks kabilar kodifikatsiya tarixiga yaxshigina hissa qo'shdi. Hozirgi zamonaviy kodifikatsiyalar uchun aynan Napoleon kodeksi andoza sifatida xizmat qilgani va butun dunyo kodifikatsiya rivojida ayni kodeksning hissasi naqadar katta ekanligini huquqshunos olim Maurice Amos ham o'z ilmiy ishlariga yozib o'tgan [4].

XULOSA

Kodifikatsiya insoniyat tarixida huquqni tartibga solish va huquqiy tizimni tizimlashtirishning eng muhim bosqichlaridan biri bo'lgan. Tadqiqotimiz davomida aniqlanishicha, ko'pchilik olimlar tomonidan eng birinchi kodifikatsiya hujjati sifatida e'tirof etiladigan Hammurappi qonunlaridan oldin ham yozma huquqiy to'plamlar mavjud



bo‘lgan. Jumladan, miloddan avvalgi 2100–2050-yillarga oid Ur-Nammu kodeksi bu borada ilk tarixiy hujjat sifatida e‘tiborga loyiq. Mazkur kodeksda jinoyatga nisbatan belgilangan jazolar, shuningdek, qonunlarning “uy qoidalari” sifatida bayon etilishi huquq va axloqiy tartibning o‘zaro uyg‘unligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Lipit-Ishtar kodeksi orqali jinoyat huquqi, fuqarolik huquqi va oila huquqi normalarining yagona hujjatda mujassam etilishi qadimgi jamiyatlarda huquqiy tizimni tartibga solishga bo‘lgan ehtiyojni anglatadi. Har bir kodeksda turli huquq sohalari aralashib ketgan bo‘lsa-da, bu holat kodifikatsiyaning muhim tamoyillaridan biri — normativ aniqlik va sohalar bo‘yicha tizimlashtirish tamoyiliga zid bo‘lsa-da, tarixiy taraqqiyotda muhim bosqich bo‘lgan.

Hamurappi kodeksi esa o‘zining mukammalligi, keng qamrovliligi va qat’iy jazolar tizimi bilan kodifikatsiya tarixida alohida o‘rin tutadi. Mazkur kodeksda sud, oila, mulk, jinoyat kabi sohalarga oid 282 ta norma o‘z aksini topgan bo‘lib, huquqiy tartibni qat’iy ta’minlashga qaratilgan.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, kodifikatsiya faqat huquqiy normalarni jamlash emas, balki huquqni tushunarli, barqaror va bir me’yorda qo‘llashni ta’minlash uchun zarur huquqiy mexanizm hisoblanadi. Zamonaviy kodifikatsiyalar uchun asos bo‘lgan Napoleon kodeksi va undan keyingi yirik huquqiy majmualar esa kodifikatsiyaning mukammal shakllarini yaratishga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, kodifikatsiyaning tarixiy taraqqiyotini chuqur o‘rganish orqali nafaqat huquqiy tizimlarning evolyutsiyasi, balki insoniyatning huquqiy ong va adolatga intilish bosqichlari haqida ham tasavvur hosil qilish mumkin. Shu bois, qadimgi kodifikatsiya namunalarini o‘rganish huquqshunoslik fanining nazariy va amaliy rivojlanishi uchun nihoyatda muhimdir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mark, J. J. (2021, October 26). [Code of Ur-Nammu](https://www.worldhistory.org/Code_of_Ur-Nammu/). World History Encyclopedia. Retrieved from https://www.worldhistory.org/Code_of_Ur-Nammu/
2. Steele, F. R. (1948). The Code of Lipit-Ishtar. American Journal of Archaeology, 52(3), 425–450. <https://doi.org/10.2307/500438>
3. Мухамедов Х. Хорижий мамлакатлар давлати ва ҳуқуқи тарихи (Қадимги дунё давлати ва ҳуқуқи тарихи). Дарслик. 1-қисм
4. Amos, M. (1928). The Code Napoléon and the Modern World. Journal of Comparative Legislation and International Law, 10(4), 222–236. <http://www.jstor.org/stable/753418>
5. Abduraximova Muxabbat Allayevna (2024). MILLIY TARBIYA XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARINING ASOSI SIFATIDA. Research Focus, 3 (11), 51-54. doi: 10.5281/zenodo.14317451
6. Allayevna, A. M. (2023). DEVELOPMENT OF USE OF FOLK ORAL CREATION TOOLS IN SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF FUTURE TEACHERS. Academia Repository, 4(12), 15-17.
7. Allayevna, M. A. (2022). Factors that shape our national pride in the minds of students in extracurricular reading classes in the primary grades.